

**JADIDCHILIK NAMOYONDASI ABDULLA QODIRIYNING
O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI**

Ijtimoiy gumanitar fanlar va san’at fakulteti o‘qituvchisi

Keldiyeva SHahnozaxon SHuhratbek qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta’lim fakulteti Logopediya yo’nalishi 102-guruh talablari

O’rmonaliyeva Muazzamxon Muslimbek qizi

Ibrohimova Gulrux Mansurbek qizi

ANATATSIYA; *Ushbu maqolada jadid adabiyotining muhim tarkibiy qismi bo’lgan nasriy asarlarga munosabat bildiriladi, o‘zbek olimlarining jadidchilik harakatidagi qilgan ishlari, asosan Abdulla Qodiriy ijodining ayrim qirralarini jadidchilik harakatidagi o‘rni, Abdulla Qodiriyning millatning erki, xalqning ozodligi, mustaqilligi, xalqni milliy ongini uyg‘otish yo‘lida qilgan ishlari, xalqni millatparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhida tarbiyalash haqida so‘z borgan.*

KALIT SOZLAR; *Abdulla Qodiriy, Jadidchilik, jadidchik namoyondalari, millat, xalq, jadidchilik harakati, ta’lim islohoti.*

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta’rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi romanchilik maktabiga asos solgan siymoning jadidchilik nomi bilan tarixga kirgan XX asr boshidagi yetakchi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy harakatdan chetda turishi mumkin emas edi. To’g’rirog’i, Qodiriy fenomeni, aslida,

jadidchilikning adabiyotda namoyon bo'lishidir. «O'tkan kunlar», birinchi navbatda jadid adabiyotining, ikkinchi nomi bilan aytganda, yangi o'zbek adabiyotining eng ko'rkam mahsuli. Buning ajablanadigan joyi yo'q. Taajjubimiz sababi, bitta hodisani turli nomlar bilan atayotganimizda va ularning hali ongimizga singib ulgurmaganida. Ikkinchidan, sovet mafkurasi tomonidan bir vaqtlar «xalq dushmani» ramziga aylantirilgan «jadid» so'zini tilga olish qo'rquvining hali-hanuz ongimizdan chiqib ketmaganligida. Lekin bugun bu narsa quyoshning borligi qadar oydin haqiqat bo'lib turibdi. U ham bo'lsa, jadidchilik atalmish hodisaning tariximizda kechgani, uning ko'hna Turkiston madaniy-ma'naviy yangilanishida buyuk omil bo'lgani. To'g'ri, uni baholashda, xususan, mazkur hodisaning maydonga kelishi va taraqqiyot bosqichlarini belgilashda har xillik yo'q emas va bu, qanchalar tabiiy bo'lsa, shu qadar qonuniy hamdir. Shunga ko'ra, quyidagi uch masalaga diqqatingizni qaratmoqchiman. Birinchisi, ayrim tadqiqotchilarimiz o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida jadidchilikni umuman e'tirof etgan holda, uni 1905 yildan keyin shakllangan va 1917 yillargagina daxldor hisoblaydilar. Bizning nuqtai nazarimiz bir oz boshqacha. va biz buni 2002 yilda nashr qilingan «Milliy uyg'onish» kitobimizda ochiqroq hamda batafsil ifodalashga harakat qilganmiz. Bu yil chop etilishi mo'ljallangan «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» darsligida bu nuqtai nazar muayyan tizim holiga keltirilgan. Undagi leytmotiv shunday: Turkiston jadidchiligi XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yurtimizda maydonga kelgan muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoit mahsuli. U siyosiy hayotda 1892 yilgi erk va ozodlik kurashlaridan 1917—1918 yillarda Turkiston muxtoriyatini e'lon qilish va istiqloqlilik harakatlarigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga qamrab oldi. Madaniy-ma'naviy ishlarda XIX asrning 90-yillarida ochilgan «usuli jadid» maktablaridan o'nlab yoshlarni taraqqiy qilgan mamlakatlar oliy o'quv yurtlariga yuborish va zamonaviy milliy kadrlar etkazish, nihoyat, o'z milliy universitetini ochish darajasigacha ko'tarildi. Milliy matbuotni maydonga keltirdi, milliy teatrga asos soldi. Badiiy ijod sohasida esa, oddiy maishiy-axloqiy mavzular tasviridan o'zlikka talpingan otalarimizning turmush va intilishlarini, murakkab va g'alayonli

ruhiyatini butun ziddiyati bilan ochib beruvchi keng diapazonli, rang-barang janrlarga ega serrang va serohang adabi-yotgacha bo'lgan yo'l bosib o'tildi. Shularga ko'ra, biz Turkiston jadidchiligini «XIX asr oxirlaridan shakllana boshlagan, XX asr boshlarida to'la namoyon bo'lgan, oktyabr voqealaridan keyin ham 20-yillarning o'rtalariga qadar qizg'in davom etgan, 1929 yildan keyin «Kim kimni engadi?» degan shior sovetlar foydasiga hal bo'lgach, bo'hronga kirgan», — degan fikrdamiz. Binobarin, yangi o'zbek adabiyotimizning eng sara namunalari maydonga kelgan 20-yillarning birinchi yarmi jadidchilikning so'nggi bosqichi. Jadidchilik ma'naviy-madaniy sohalarni yangi izga solgani singari adabiyotda ham uch buyuk boniyni o'rta qiqardi. Cho'lpon yangi o'zbek she'ri binosiga asos soldi. Fitrat yangi adabiy-badiiy tafakkurni boshlab berdi, chinakam dramaturgiya namunalarini yaratdi. Qodiriy o'zbek romanchiligining otasi bo'lib tarixga kirdi. Ikkinchisi, Abdulla Qodiriyning shakllanishida jadidchilikning roli va o'rni masalasi. Abdulla Qodiriy Turkistonda jadidchilik harakat sifatida endigina nish urayotgan, «usuli jadid» maktablari o'lkada yakkam-dukkam ochila boshlagan bir paytda tug'ildi.

Abdulla Qodiriy va jadidchilik masalasi mavzusi qodiriyshunoslikninggina emas, adabiyotshunosligimizning ham muhim va dolzarb, lekin shu paytga qadar etarlicha e'tibor berilmay kelayotgan masalalaridan. Muhimligi shundaki, Abdulla Qodiriydek o'zbek adabiyotida yangi yo'l-yo'nalishni boshlab bergan, o'zbek (1894—1938) Abdulla Qodiriy yangi davr o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri, o'zbek milliy romanchilik maktabining tamal toshini qo'ygan buyuk adibdir. U 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog'bon oilasida tug'ilgan. 9-10 yoshlarida eski usul maktabda tahsil ko'radi. So'ng rus-tuzem maktabida o'qiydi. 17-18 yoshlarida bir savdogarga prikazchilikka yo'llanib, uch-to'rt yil ishlaydi. So'ng bog'bonlik bilan tirikchilik o'tkazadi. Abdulla Qodiriy ijodi 1913—1914-yillarda boshlandi. U shu yillari barcha ilg'or fikrii yoshlar qatori jadidchilik harakatiga qo'shilgan va o'zining ilk asarlarida ma'rifat, millat taraqqiyoti va hurliqi g'oyalarini targ'ib eta boshlagan. Qodiriy dastlab ma'rifiy she'rlar yozdi. «Ahvolimiz», «Millatimiz», «To'y» kabi

she'rlari jadid matbuotida e'lon qilinadi. 1915-yili u Behbudiyning «Padarkush» fojiasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» pyesasini yozadi. «Sadoi Turkiston» gaz.ning 1914 y. 1 apr. sonida A.Q. imzosi bilan «Yangi masjid va maktab» sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo'lajak adibning matbuotdagi dastlabki chiqishi edi. Oradan ko'p o'tmay, uning «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi chop etiladi (1914—15). A.Q. ijodining dastlabki namunalari bo'lgan bu asarlar millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgandir. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyib so'zlaydi, millatni uyg'onishga da'vat etadi, fikrlashga chorlaydi. A.Q.ning «Uloqda» hikoyasi (1916) avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lib, 20-asr tongidagi o'zbek realistik adabiyotining cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi. So'ng o'zi «milliy ro'mon» deb atagan «Juvonboz» hikoyasini yaratadi. Bu asarlar ham avvalo ma'rifatparvarlik qarashlari mahsuli bo'lib, jamiyatdagi chirkin illatlar va qoloq urf-odatlarini keskin tanqid qilishga yo'naltirilgan.

Abdulla Qodiriy, haqiqatan ham, “Juvonboz” asarida yaramas, kasal odatga qarshi chiqadi. Turkiston o'lkasida tarqalgan bu ifloslikdan Qodiriy juda qattiq nafratlanagan. “Juvonboz” va “Baxtsiz kuyov”lar mashqi tufayli yozuvchining qalami charxlanib bordi. “Uloqda” hikoyasida jiddiy realistik o'zgarish yuz berdi. Oybek yozdi: “Abdulla Qodiriy turmushni badiiy ko'rsatishda tez o'sadi. Nasrchilikda uning ustaligi mukammallashadi. Darhaqiqat, Abdulla Qodiriyning jadidona ruhdagi “To'y”, “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror!”, “Fikr aylagil” degan she'rlari, “Juvonboz” hikoyasi va “Baxtsiz kuyov” pesasidan keyin yozilgan “Uloqda” hikoyasi adibning voqelikni san'atkorona tasvirlashning realistik tamoyili tomon yuz burishi bo'ldi. A.Qahhor ta'biri bilan aytganda “Yevropa adabiyoti gazi bilan o'lchaganda ham to'laqonli asarlar” yozdi. Jadidona ma'naviy-ma'rifiy muhitda maydonga kelgan “O'tkan kunlar” romani nafaqat Abdulla Qodiriy ijodining, balki jadid nasrining, yangi roman janrining gultoji sanaladi. Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” romanini

yoʻzish bilan oʻzbek romanchilik maktabiga asos soldi. “Inqilob” jurnalining 1923-1924-yilgi sonlarida bosiladi. Keyin 1925-1926-yillarda romanning har bir boʻlimi alohida kitob holida nashr etilib, qoʻlma-qoʻl oʻqiladi. “Oʻtkan kunlar” yozilgan davr oʻzbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi oʻrni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Abdulla Qodiriy oʻz davrining ilgʻor bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri ustida astoydil qaygʻurdi, oʻzicha najot yoʻlini izladi. Zamon talotoʻplari adib qalbini iztirobga soldi. “Oʻtkan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uygʻotmoqchi boʻldi, “tariximizning eng kir, qora kunlari” – yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi noahil “xon zamonlari” toʻgʻrisida soʻz ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermiqchi boʻldi. “Oʻtkan kunlar” romanining maʼno-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning asosiy pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, faravonligi, osoyishtaligi yoʻliga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi. “Oʻtkan kunlar” bamisoli ulkan va tiniq koʻzgu, unda oʻzbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-maʼnaviy dunyosi, boʻy-basti, qiyofasi keng koʻlamda aniq, ravshan gavdalantiriladi. Romandagi uchlik – oshiq, mashuqa va agʻyor, bir qarashda, anʼanaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zoʻr mahorat bilan tasvir etiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho” – ishq-muhabbat tuygʻusiga doir inja tafsilotlar kitobxon ni hayajonga soladi; Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojeaviy sahnalar kishini chuqur oʻyga toldiradi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini koʻz oldimizda gavdalantiradi. Abdulla Qodiriy Otabek bilan Kumushning ishq tarixini yozar ekan, ayni damda oʻlkaning tutqunlikka

tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir, degan fikrni g‘oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi. Adib romandagi markaziy obrazlardan biri – Yusufbek hoji zimmasiga katta yuk yuklaydi. Noo‘rin isyonga otlanayotgan olomonga qarata: “ Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘ris bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimga yetgan ko‘raman”, deb aytadi. Biroq hojining istagiga qarshi qirg‘in bo‘lib o‘tadi. Buning ustiga ustak Otabek ham otasining bu ishda qo‘li borligidan shubhalanib hojining ko‘ngliga ozor yetkazadi. Yusufbek hojining o‘zini oqlab masalaning tub mohiyatini tushutirgandan so‘ng aytgan quyidagi so‘zlari bu shaxsning chindan ham yirik-ulug‘ ekanini yaqqol ko‘rsatadi. “Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv qo‘yadigan bo‘lsak yaqindirki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsak o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘yniga o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz. O‘z naslini o‘z qo‘li bilan kofir qo‘lig‘a tutqin qilib topshirg‘uvchi - biz ko‘r va aqlsiz otalarg‘a Xudoning la‘nati albatta tushar, o‘g‘lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to‘ng‘uzxona qilishg‘a hozirlang‘an biz itlar Yaratg‘uvchining qahriga albatta yo‘liqarmiz! Temur ko‘ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug‘bek va Ali Sino kabi olimlarning o‘sib-ungan va nash‘u namo qilg‘onlari bir o‘lkani halokat chuquriga qarab sudraguvchi albatta Tangrining qahriga sazovordir, o‘g‘lim! Gunohsiz bechoralarni bo‘g‘izlab, bolalar yatimxonalarini vayron qilguvchi zolimlar – qurtlar va qushlar, yerdan o‘sib chiqq‘an giyohlar qarg‘ishiga nishonadir o‘g‘lim!...” Ota va o‘g‘il suhbatlari jarayonida aytilgan bu gaplar katta ijtimoiy mohiyatga ega. Hojining bu masalalarda o‘z qarashi, o‘z gapi bor. Shuning uchun uning fikrlari Otabekni uyalib yerga qarashga majbur etadi. Abdulla Qodiriy romanida o‘zbekning sokin oilaviy hayot tarzini ham, kundosh kelinlar orasidagi o‘zaro nizolar va ularning yechimini ham juda ishonarli, mahorat bilan tasvirlaydi. Romandagi har bir qahramonda joziba bor; ularning ko‘ngli, ko‘zi, ma’naviy qiyofasi ko‘zga ko‘rinib turadi; yurak urishlari eshitiladi. Asosiy,

ikkinchi darajali va hatto epizodik timsol-obrazlarning fikrlari teran, mulohazalari hikmatlar bilan to‘yingandir. Rahmat, Akram hoji, Oysha buvi, Oybodoq, Ali va boshqa qator epizodik obrazlar o‘zining yorqin qiyofasi hamda mantiqan kuchli so‘zlari bilan esda qoladi. Asar avvalidagi bir yig‘inda majlis ahli Turkistonning O‘zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy o‘sha paytdagi holatini tahlil qiladi. Ziyoshohich: “Bizning shu holga tushishimiz o‘z fe‘limizdan”, deydi. Otabek esa ijtimoiy tubanlikning sababini ittifoqsizlikda, o‘zaro nizolarning avj olganida, “buzg‘unchi va nizochi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chuquriga qarab” tortishida, deb biladi. Otabek XIX asr oxiridagi Turkistonda kechayotgan ahvolga doir “chuvalgan ipning uchini topib bergandek” bo‘ladi. Darhaqiqat, xalqning obod va ozod turmushini dil-dildan istagan Abdulla Qodiriydek bir insonning ma’naviy-estetik dunyosiga ham bunday fikr-mulohazalar begona emas, albatta. Adibning badiiy so‘zida ontologik-umrboqiylik jihatidan betakror joziba bor; shu bois “O‘tkan kunlar”ni necha marta o‘qisa ham, odam to‘ymaydi; qayta mutolaaga ehtiyoj sezaveradi. Roman o‘quvchini zeriktirmaydi. Qayta o‘qish jarayonida asarning yangidan-yangi qirralari kashf etiladi. Bir o‘qilganda e‘tiborsiz o‘tilgan epizodlarga boshqa safar diqqat qaratiladi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga daxldor hodisadir. Zero, ko‘rkam adabiyotdek san‘at dunyosida poetik nutq muhim sanaladi; so‘z vositasida manzara, ruhiyat va obraz chiziladi; “umr – otilgan o‘q ermish”, “o‘rinsiz chiransang, beling sinadi” singari hikmatlar bayon etiladi. Barchaga ayon bu haqiqat badiiy adabiyotning eng murakkab alifbosidir.

Xulosa qilib aytganda, birinchi o‘zbek romani egasi, iste’dodli adib Abdulla Qodiriyning asarlari o‘zbek jadid adabiyoti tarixida mumtoz o‘rinni egallaydi. Uning ayrim hikoyalari, xususan, “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari nafaqat o‘zbek, balki turkiy xalqlar, umuman, jahon adabiyotining go‘zal namunalari qatoridan joy olishga munosib asarlardir. Adibning bu romanlarini turkiy xalqlar adabiyotidagi jadidona pafosli asarlar bilan qiyoslab o‘rganishga ham zarurat bor, albatta. “O‘tkan kunlar”ni ingliz tiliga

o'giran amerikalik tarjimon Mark Riz e'tirofiga ko'ra: "O'tkan kunlar" romani bosh qahramoni "Otabek – jadid" edi. U yana ta'kidlaydiki, Abdulla Qodiriy o'z romani orqali jadid sifatida o'z zamonasida "kelajak avlodni yaqinlashib kelayotgan xavf-xatardan" ogohlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Munozara"ning tug'ilishi. Fitrat va jadidchilik. Toshkent. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. 2004. Toshkent:

1. Karimov B. "Abdulla Qodiriy". –T.: "Fan". 2006.
2. Karimov B. "Adabiyot, badiiyat, abadiyat". T.: Xotiralar, badiialar, maqolalar. 2004.
3. Mirvaliev S. "Abdulla Qodiriy". "Fan" nashriyoti. – T.: 1992
4. Nazarov B. "O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi". T.: "Fan". 1987.
5. Rasulov A. "Tanqid, tahlil, baholash". T.: "Fan" nashriyoti, 2006
6. Rahimjonov N. "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati". – T.: "Fan" nashriyoti, 2007.
7. www.ziyonet.uz
8. www.adiblar.uz